

Uzbekistan Airways mahalliy aviaqatnovlar sonini oshiradi

2021 13 Oktabr

Mahalliy aviatashuvlarni rivojlantirish va respublikamiz shaharlari o'rtasida harakatlanish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida Airways 2021-yil 15-oktyabrdan boshlab Yoz-2022 yakuniga qadar Buxoro, Termiz, Urganch va Nukus shaharlariga parvozlarning qo'shimcha chastotasini oshiradi.

Toshkent - Nukus - Toshkent yo'nalishi bo'yicha uchta qatnov qo'shildi:

chorshanba va shanba kunlari

Toshkent - Nukus: 19: 00-20: 40 Nukus - Toshkent: 21: 20-22: 40

yakshanba kunlari

Toshkent - Nukus: 07: 15-08: 55 Nukus - Toshkent: 09: 35-10: 55

Toshkent - Nukus - Toshkent yo'nalishi bo'yicha aviachiptalar narxi:

- bagajsiz bir tomonga 408 681 so'mdan, bagaj bilan esa 506 513 so'mdan boshlanadi,
- borish va ortga qaytish bagajsiz 778 301 so'mdan, bagaj bilan 963 611 so'mdan boshlanadi.

Toshkent-Urganch-Toshkent yo'nalishi bo'yicha 2 ta aviaqatnov qo'shildi:

dushanba va juma kunlari

Toshkent - Urganch: 19: 00-20: 30 Urganch - Toshkent: 21: 20-22: 30

Toshkent - Urganch - Toshkent yo'nalishi bo'yicha aviachiptalar narxi:

- bagajsiz bir tomonga 407 681 so'mdan, bagaj bilan esa 506 653 so'mdan boshlanadi;

- borish va ortga qaytish bagajsiz 803 009 soʻmdan, bagaj bilan 988 319 soʻmdan boshlanadi.

Toshkent - Buxoro - Toshkent yoʻnalishi boʻyicha 2 ta aviaqatnov qoʻshildi:

payshanba kunlari

Toshkent - Buxoro: 20: 50-22: 00 Buxoro - Toshkent: 22: 40-23: 40

Juma kunlari

Toshkent - Buxoro: 14: 00-15: 10 Buxoro - Toshkent: 15: 50-16: 50

Toshkent - Buxoro - Toshkent yoʻnalishi boʻyicha aviachiptalar narxi:

- bagajsiz bir tomonga 160602 soʻmdan, bagaj bilan 185310 soʻmdan boshlanadi,
- borish va ortga qaytish bagajsiz 308 850 soʻmdan, bagaj bilan 358 266 soʻmdan boshlanadi.

Toshkent - Termiz - Toshkent yoʻnalishi boʻyicha 4 ta aviaqatnov qoʻshildi

seshanba va juma kunlari

Toshkent - Termiz: 13: 30-14: 50 Termiz - Toshkent: 15: 30-16: 40

chorshanba va yakshanba kunlari

Toshkent - Termiz: 18: 00-19: 20 Termiz - Toshkent: 20: 00-21: 10

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy saytida, Uzbekistan Airways Sales filialidan yoki aviakompaniya agentlaridan, shuningdek koʻrsatilgan shaharlar aeroportlaridan xarid qilib olish mumkin. Eslatib oʻtamiz, aviakompaniyaning rasmiy sayti orqali aviachiptani xarid qilib olayotganda 3% chegirma taqdim etiladi.

Aviachiptalar narxi 12.10.2021-yil holatiga koʻra amal qiladi

Telegram: t.me/uzbekistanairways